O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2025-yil 18-oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

O‘ZBEK TILI MULTIKORPUSI – ZAMONAVIY TA’LIMIY TIZIM
THE UZBEK LANGUAGE MULTICORPUS – A MODERN EDUCATIONAL SYSTEM

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/MKYZ2216

Abjalova Manzura Abdurashetovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professori v.b.
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi
abjalova.manzura@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1927-2669

Annotatsiya. *Tabiiy tilni qayta ishlash sohasining zarurati har bir til taraqqiyoti uchun dolzarb. Aynan o‘zbek tili qo‘llanish ko‘lamining oshishi, dunyo tillari qatorida nufuzga ega bo‘lishida ham uning raqamli texnologiyalar tiliga moslashtirilib, undagi resurslarning qayta ishlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, o‘zbek tilida har bir sohaga oid matnlar mavjud. Demak, ularni umumiy bir platformaga birlashtirish katta va sertarmoq ma’lumotlar bazasining yuzaga kelishiga olib keladi. Shu maqsadda o‘zida 20 turdagi til korpusini jamlagan o‘zbek tili multikorpusi yaratildi. Mazkur maqolada uzcorpora.uz multikorpusi (http://uzcorpora.uz/), uning tuzilishi, lingvistik imkoniyatlari va uni zamonaviy ta’limiy tizimda qo‘llashning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada korpusning statistik tahlil xususiyatlari yoritilgan hamda ularning tilshunoslik, leksikografiya, ta’lim va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalaridagi amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Multikorpusning o‘zbek tilining raqamli infratuzilmasini rivojlantirishdagi o‘rni ochiqlangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, multikorpus, korpus lingvistikasi, uzcorpora.uz, NLP, morfologik tahlil, ta’lim tizimi.*

Annotation. *The necessity of natural language processing is relevant for the development of every language. It is the adaptation of the Uzbek language to the language of digital technologies and the processing of its resources that plays an important role in increasing the scope of use of the Uzbek language and its prestige among world languages. Naturally, there are texts in the Uzbek language related to each field. Therefore, combining them into a single platform leads to the creation of a large and networked database. For this purpose, a multicorpus of the Uzbek language was created, which includes 20 types of language corpora. This article analyzes the multicorpus uzcorpora.uz (http://uzcorpora.uz/), its structure, linguistic capabilities, and the scientific basis for its application in the modern education system. The article also highlights the features of statistical analysis of the corpus and shows their practical significance in the fields of linguistics,*

lexicography, education, and natural language processing (NLP). The role of the multicorpus in the development of the digital infrastructure of the Uzbek language has been revealed.

Keywords: *Uzbek language, multicorpus, corpus linguistics, uzcorpora.uz, NLP, morphological analysis, education system.*

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi tilshunoslik tadqiqotlariga ham yangi ilmiy yondashuvlarni olib kirdi. Tilni o‘rganish, o‘qitish va tahlil qilishda korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuv bugungi kunda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Jahon amaliy tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalarining tadqiqi XX asrning ikkinchi yarmida yangi bosqichga ko‘tarildi [McEnery & Hardie, 2012], [Leech, 1992]. Shu davrda ingliz tilining ilk yirik korpusining yaratilishi boshqa tillar uchun ham elektron korpuslarni shakllantirish jarayoniga kuchli turtki bo‘ldi. Hozirgi bosqichda tabiiy tillarning lingvistik modellarini yaratish, nutqiy imkoniyatlarini kompyuter tizimida ifodalash, shuningdek, tilga oid masalalarni axborot texnologiyalari va metodlari asosida o‘rganishda korpus muhim obyekt sifatida qaralmoqda. Tabiiy tillarning barqaror rivojlanishi va milliy sofligini saqlash dolzarb bo‘lgan bugungi davrda tillarning elektron korpuslarini yanada mukammallashtirish hamda yangi korpus texnologiyalarini ishlab chiqish zamonaviy lingvistikaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, uzcorpora.uz multikorpusi [1] o‘zbek tili uchun yaratilgan ko‘p tur bazaga ega yirik lingvistik resurs bo‘lib, u o‘zbek tilining turli janr va uslublardagi matnlarini birlashtirgan ko‘p maqsadli platforma hisoblanadi. Shu kunga qadar Alisher Navoiy mualliflik korpusining yaratilib, ayni damda foydalanilayotganligi o‘zbek korpusshunosligi yutuqlaridan hisoblanadi [4], [5], [6], [7], [8], [9], [10].

Til korpuslari ba’zi manbalarda lingvistik (leksik) korpus, matnlar korpusi kabi terminlar bilan ham tilga olinadi. Ular muayyan lingvistik muammolarni hal qilishga mo‘ljallangan vosita bo‘lib, saralangan va teglangan elektron shakldagi matnlar majmuasi hisoblanadi va pragmatik ahamiyatga ega yirik elektron baza sanaladi [Abjalova, 2022]. Korpus lingvistikasi konsepsiyasi tabiiy tilni o‘rganish va tahlil qilishni nazariy lingvistik modellar bilan emas, real matnlar bazasi orqali amalga oshirilishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu yondashuv an’anaviy lingvistikaning qoidalarga asoslangan tahlilidan farq qilib, empirik dalillar (tajriba, kuzatish va real ma’lumotlarga asoslangan fakt yoki isbot)ga asoslanadi. Demak, korpus lingvistikasining mahsuli til korpuslari tilni empirik jihatdan o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Uzcorpora.uz – o‘zbek tilining ko‘p maqsadli (multifunksional) korpuslarini mujassamlashtirgan platforma bo‘lib, u tilshunoslik tadqiqotlari, ta’lim va NLP tizimlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Ayni damda multikorpus tarkibida 20 milliondan ortiq so‘zshakllar mavjud bo‘lib, ular badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublardagi matnlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan u o‘zbek

tilining zamonaviy holatini aks ettiruvchi empirik til bazasidir. Unda quyidagi turdagi korpus bazalari jamlangan:

1. Umumiy korpus
2. Gazetalar korpusi
3. Ijtimoiy tarmoqlar korpusi
4. Ta’limiy korpus
5. Bolalar adabiyoti korpusi
6. Badiiy matnlar korpusi
7. Uslubiy xoslangan matnlar korpusi
8. Mualliflik korpuslari
9. Poetik matnlar korpusi
10. Diniy matnlar korpusi
11. Parallel korpuslar
12. Tarixiy matnlar korpusi
13. Urg‘uli matnlar korpusi
14. Ilmiy manbalar korpusi
15. Rasmiy matnlar korpusi
16. Jadid manbalari korpusi

Xususan, ta’limiy korpus o‘quv maqsadida yaratilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan matnlar to‘plamining elektron shakldagi, tizimlashtirilgan va tahlilga moslashtirilgan ko‘rinishidir. U ta’lim tizimidagi darsliklar, topshiriqlar, o‘quv materiallari, testlar, o‘quvchilarning yozma ishlari va boshqa resurslarni o‘z ichiga oladi. Ushbu korpus til o‘rganish, fanlarni o‘qitish yoki pedagogik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gazetalar korpusi – gazeta maqolalari asosida tuzilgan elektron matnlar to‘plami. U turli vaqtlarda, turli mualliflar tomonidan yozilgan gazeta materiallarini o‘z ichiga oladi va tilshunoslik, jurnalistika, sun’iy intellekt (AI) hamda sotsiologik tadqiqotlarda muhim rol o‘ynaydi.

Multikorpusning lingvistik va texnik xususiyatlari. Ma’lumki, til o‘rgatishda, umuman, ta’limda korpuslardan lingvistik baza sifatida foydalanish ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois mazkur multikorpusda o‘zbek tilidagi matnlarning nutqiy uslublarga xoslangan maxsus bazasi ham yaratilgan bo‘lib, bu o‘z o‘rnida muayyan leksik birlikning uslublararo qo‘llanishini tahlil qilish, ma’lum uslubga xos konkordanslar massivini topib, ularni pragmatik tahlil qilish imkonini ham beradi. Multikorpus quyidagi lingvistik va texnik imkoniyatlarni taqdim etadi:

a) matnlar xilma-xilligi: turli janr va uslublardagi matnlar korpusga jamlangani sababli, o‘zbek tilining leksik-semantik boyligini, grammatik qurilishini va uslubiy farqlarini o‘rganish imkonini beradi;

b) morfologik teglash (POS tagging) [11], [15]: korpusdagi har bir birlik morfologik jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, so‘z turkumi, grammatik kategoriyalari va affikslari ko‘rsatilgan. Bu esa avtomatik analizatorlar va til modellari uchun zarur ma’lumot manbai hisoblanadi;

c) lemmalash va stemming [13], [14]: leksik bazadagi so‘zlarning asosiy shakli (lemma) aniqlangan bo‘lib, bu avtomatik tahlilni soddalashtiradi va statistik hisoblarni aniqroq qiladi.

d) Statistik ma’lumotlar: korpusdan unigram, bigram, trigram va boshqa n-gram tahlillarini olish mumkin. Bu o‘zbek tilining strukturasini matematik modellar orqali chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Shu o‘rinda N-gram terminini ochiqlab o‘tamiz. N-gram – bu matndagi ketma-ket kelgan N ta birlik (“gramma” – yozuv, birlik: so‘z, harf, morfema, belgi va h.k.)ning kombinatsiyasi. Ikki element ketma-ketligi – bigramma, uch element ketma-ketligi esa trigramma deyiladi. Masalan:

– Unigram (1 gram) → bitta birlik: *kitob*
– Bigram (2 gram) → ikki birlik: *kitob o‘qimoq*
– Trigram (3 gram) → uch birlik: *kitob o‘qib chiqdi*

O‘rinli savol mavjud: N-gram metodmi yoki model?

Javob: N-gramni metod sifatida ham, model sifatida ham tilshunoslik va NLPda ishlatishadi. (Bu haqda batafsil [Abjalova, Rashidova, 2025:248-250]

Uzcorpora.uz multikorpusining qo‘llanish sohalari. Uzcorpora.uz multikorpusi ko‘p bazali til korpusi bo‘lgani bois u quyidagi sohalarda ahamiyatli hisoblanadi:

1. Tilshunoslik tadqiqotlarida: Korpus lingvistikasi yondashuvi asosida o‘zbek tilining leksik, morfologik, sintaktik va semantik tizimlari zamonaviy tahlil vositalari orqali o‘rganilmoqda.

2. Leksikografiya va terminografiyada: Multikorpus real til materiallarini tahlil qilish asosida yangi elektron lug‘atlar, termin bazalari va semantik tarmoqlarni yaratishda qo‘llanilmoqda.

3. Ta’lim tizimida: Korpusdan o‘zbek tilini o‘qitishda, ayniqsa, chet elliklar uchun o‘zbek tili (Uzbek as a foreign language) kurslarida foydalanish samarali natija beradi.

4. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da: uzcorpora.uz o‘zbek tilidagi avtomatik tarjima, nutqni tanish, sentiment tahlil, matnni avtomatik teglash va til modellari yaratishda asosiy lingvistik resurs sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzcorpora.uz multikorpusi o‘zbek tili uchun ilmiy, ta’limiy va texnologik jihatdan zamonaviy tizim hisoblanadi. U tilshunoslikdagi empirik tahlillarni rivojlantiradi, o‘zbek tilining raqamli resurslarini kengaytiradi va sun’iy intellekt asosidagi ishlanmalar uchun fundamental bazani ta’minlaydi. Mazkur multikorpus o‘zbek tili ta’limi va ilmiy tadqiqotlarida yangi paradigma – korpusga asoslangan o‘qitish va tahlil metodologiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. uzcorpora.uz – O‘zbek tili multikorpus platformasi (https://uzcorpora.uz)
2. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press.

3. Leech, G. (1992). Corpora and Theories of Linguistic Performance. Longman Linguistics Library.
4. Abjalova M., G‘ulomova N. Mualliflik korpuslari: Alisher Navoiy mualliflik korpusi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova, N.S. G‘ulomova. – Navoiy, 2023. – 216 b.
5. Abjalova M. Alisher Navoiy mualliflik korpusi: imkoniyatlari va foydalanish yo‘riqnomasi. – Toshkent: BookPrint, 2024. – 163 b.
6. Sirojiddinov Sh., Abjalova M., Normamatov S., Gulomova N. “The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus,” 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 26-28 october, 2024. Antalya, Turkiye, – pp. 48-53.
7. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
8. Abjalova M., E. Adalı and O. Iskandarov, “Educational Corpus of the Uzbek Language and its Opportunities,” 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 590-594, doi: 10.1109/UBMK59864.2023.10286682.
9. Abjalova M., Gulomova N. Creation of a Linguistic Database for Alisher Navoy Authorship Corpus. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TURKLANG 2023» Труды конференции. – Qozon: Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasining nashriyoti, 2023. – C. 659-669.
10. Abjalova M. Alisher Navoiy mualliflik korpusi: dolzarbligi, zarurati va ahamiyati // “Global integratsiya sharoitida turkey tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar” mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2024. – B. 566-572.
11. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
12. Abjalova M., Rashidova U. Tilshunoslikning mantiqiy asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2025. – 210 b.
13. Abjalova M. O‘zbek tilidagi mantlarni avtomatik morfologik tahlil qilishda lemmatizatsiya va stemming jarayoni. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4 /2024. – B. 6-21.
14. Abjalova M., Eşref Adalı, Adilova M. “The Process of Lemmatization and Stemming in the Automatic Morphological Analysis of Uzbek Texts,” 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 26-28 october, 2024. Antalya, Turkiye, – pp. 101-106.
15. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924 Volume 2|No12|Dec-2023.–PP.103-107.https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733

MUNDARIJA

Sirojiddinov Shuhrat	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
Ashirboyev Samixon	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
Juraqobilova Xamida	She’riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta’siri	17
Mustafayev Fizuli	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqinda	24
Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
Turdiboyev Tohir	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
Abjalova Manzura	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba’zi masalalar	42
Sheronov Boyirboy	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
Madjidova Dilorom	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
Tolipova Dildora	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
Elova Dilrabo	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
Abdullayev Jumanazar	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
Israilova Saodat	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
Kasimova Ziyoda	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
Baxodirova Shaxlo	Lakuna va realiya munosabati	92

Hakimov Dilshod	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
Allaquliyeva Qunduz	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
Isoqulova Qunduz	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
Ismayilli Ayshen	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlər xülasə	122
Davronova Zarnigor	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
Muzaffarova Zarrina	Metonimiyaning konseptual modellari	136
Yusupova Aziza	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
Mamarasulova Maftuna	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
Abdurasulova Dilnoza	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
Soqiyeva Shirin	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
Abruyeva Zaxro	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
Bovmanova Bashorat	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
Jumaniyozova Charos	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
Xayrullayeva Ra’no	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
Tursunova Sojidaxon	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177

Utegenova O‘g‘iloy	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
Maxmudova Matluba	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
Xolmamatova Sarvinozxon	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	191
Turg‘unboyeva Dilnoza	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
O‘ralova Nargiza	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
Jabborova Aziza	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
Odilova Dilobar	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
Nazarov Qobilbek	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
Mullaboyeva Shirin	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
G‘aybullayev Erkinjon	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
Oripova Mavluda	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
Otaxonova Sohiba	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
Shodmonaliyeva Yulduz	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
Sobirova Maftuna	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
Umarova Shahzoda	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
Turg‘unova Maftuna	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
Muratova Nafisa	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274

	vositalarning o‘rni	
Murotov Hamro	Reklama matnlarining tasnifi	280
Normuminov Laziz	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
Xolmanova Zulxumor	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
Qurbonova Munavvara	Ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
Ruzibayeva Nigoraxon	Psychological needs in the language classroom	303
Abdurahmonova Muqaddas	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
Umurzoqova Marhabo	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
Abjalova Manzura	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
Ruzmetova Novval	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
G‘ulomova Nargiza	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
Dedaxanova Muazzam	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
Shamsiyeva Manzura	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
Xudaykulova Shaxnoza	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarning aksiolingvistik integratsiyasi	353
Ibragimova Sayyora	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
Tilyabayev Kamil	Благодарные: из эмоционального опыта	361

	изучения узбекского языка как второго	
Alimardanov Elyor	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
Bozorova Sabohat	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
Abduvoxidova Mavzuna	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
Mamadayupova Vasila	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
Azizova Feruza	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	385
Abdullayeva Roxila	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
Yusupova Shahzoda	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
Mamirova Xayriniso	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibrid modellari	398
Nabiyeva Parvina	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
O‘rinova Zarifa	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
Rayimjonova Matluba	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
Turobova Nargiza	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
Abdullajonova Madina	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
Pulatova Umriniso	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
Imomova Ismigul	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
Arolova Nafisa	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
Tursunboyeva Fayiza	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443

Amrullayeva Mohinur	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
Mirnosirova Dilbar	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
Aminova Zilola	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
Muratova Ademi	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
Umurzakova Zuxraxon	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
Maxmudjonova Nargizaxon	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa…	477
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
Mirzodjanova Malika	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
Komilova Gavharoy	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
Pulatova Zamira	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
Moldokulova Elina	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
Yo‘ldoshxonov Javohirbek	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
Abduqodirova Zebo	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509

Otamirzayeva Sug‘diyona	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
Sayfiyeva Komila	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
Madjidova Maftuna	Лингвосоматические единицы которие характерные для арабской культуры	529
Xasanova Sohibjamol	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
Lafasova Mavjuda	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539
Olimova Mushtariybonu	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
Akalin Ahmet	*Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu*	549
Rahmonqulov Abdunazar	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
Xakimova Mavzunadjon	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
Musurmankulova Shaxribon	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
Xodjayeva Mashhura	Влияние глабализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
Erkaboyeva Havojon	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581

Axmedova Niluzar	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
Seyhan Tanju	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
Abdushukurov Baxtiyor	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
Rahimi Farhad	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışları Üzerine	611
Jafarzade Vahide	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
Muhammadiyeva Dilafro‘z	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
Bo‘ronov Anvar	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
Xo‘janiyazova Shahnoza	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
Xolmurodova Mushtariy	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
Mirzayeva Ulker	Yunan mənbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
Babazade Rahshane	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
Yodgorov Hamid	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
O‘razova Iqbol	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obyekti sifatida	701
Azizzade Turkan	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqinda	705
Saygin Muhterem	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711

	Görge Bay)	
Hamishog‘lu Meryem	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk’ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
Bakirov Qudratillo	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
Sattorova Shahnoza	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
Maqsudova Feruza	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obyekti sifatida	745
Azizova Nilufar	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
O‘tkirbek Muhammad Sobir	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
Siddiqova Naimaxon	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
Qasimova Sema	“Kitabi-Dədə Qorqud” mətnlərində qadin-kişi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik təhlili	766
Turdiyeva Roza	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774